

ARAB TILIDA SO'Z BOYLIгинI OSHIRISHDA KOMIL KIYLONIY ERTAKLARINING O'RNI

Rajabova Nilufar Komiljon qizi

O'zDJTU Sharq filologiyasi 1-kurs talabasi
rajabovanilufar6@gmail.com

Umurzakova A.U.

Ilmiy rahbar: O'zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi
va amaliyoti kafedrasida o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada arab adabiyotining boy asarlari, xususan, Komil Kiyloiniyning bolalar uchun yozilgan ertaklari o'rganiladi. Ertaklarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinib, ularning yosh arab tili o'rganuvchilariga so'z boyligini oshirish, grammatik bilimlarni mustahkamlash va adabiy tilni shevalardan holi tarzda o'rganishga ta'siri yoritilgan.*

***Kalit so'zlar va iboralar:** arab adabiyoti, Komil Kiyloiniy, bolalar ertaklari, arab tili, so'z boyligi.*

***Аннотация:** В данной статье изучаются богатые произведения арабской литературы, в частности сказки, написанные для детей Камилем Килани. Анализируются особенности этих сказок, а также их влияние на обогащение словарного запаса молодых изучающих арабский язык, укрепление грамматических знаний и изучение литературного языка, свободного от диалектов.*

***Ключевые слова и выражения:** арабская литература, Камил Килани, детские сказки, арабский язык, словарный запас.*

***Abstract:** This article explores the rich works of Arabic literature, specifically the children's stories written by Kamil Kilani. The unique features of these stories are analyzed, highlighting their impact on enriching the vocabulary of young Arabic language learners, strengthening grammatical knowledge and learning literary Arabic free from dialectal influences.*

***Keywords and phrases:** Arabic literature, Kamil Kilani, children's stories, Arabic language, vocabulary.*

Arab adabiyoti o'zining boy tarixi, keng qamrovli mavzulari va chuqur falsafiy mazmuni bilan mashhurdir. Xususan, arab yozuvchilari tomonidan yaratilgan ertaklar bolalar va yangi til o'rganuvchilar uchun ajoyib o'quv materialini hisoblanadi. Bu ertaklar nafaqat tilni o'rganish, balki madaniy qadriyatlarni tushunishga ham yordam beradi. Ushbu maqolada arab yozuvchisi Komil Kiyloiniyning bolalar ertaklaridan biri tahlil qilinadi.

Arab adabiyoti o'ziga xos bo'lgan, mashhur yozuvchi namoyondalari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, bolalar uchun yozilgan ertak-qissa va hikoyalar ko'pgina insonlar qalbidan joy olgan. Shulardan, mashhur misrlik yozuvchi, arab olamida o'zining qiziqarli, sodda, xalq tushunadigan oddiy uslubda qalam tebratgan va shu sohada

shuhrat qozongan, tarbiyaviy-axloqiy ertaklari bilan bolalar qalbidan joy olgan Komil Kiylo'niy 1897-yil 20-oktabrda Qohirada tug'ilgan.

Al-Azharda diniy va adabiy yo'nalishda keng tahsil olgan. Ilmga chanqoq, yozuvchilikni xush ko'radigan adib Komil Kiylo'niy o'z e'tiborini bolalar uchun ertak-hikoyalarni yozishga qaratdi. Uning ertak-hikoyalari ko'pgina tillarga tarjima qilingan.

Adibning asarlari nafaqat arab diyorida, balki bizning yurtimizda ham o'zbek yosh arab tili o'rganuvchilari tomonidan sevib o'qila boshlandi. Komil Kiylo'niyning asarlari yurtimizda arab tilini o'rganishda, arab so'z boyligini rivojlantirishda katta hissa qo'shib kelmoqda.

Komil Kiylo'niyning eng mashhur bolalar uchun yozilgan ertaklari 250 dan ortiqdir. Yozuvchining ertaklaridan bizda keng tarqalganlaridan bular:

-الأرنب الذكي

-الأسد الطائرة

-أرنب في القمر

-أحلام بسببه

-البيست الجديد

-الفيل خربوش

va boshqa ko'pgina ertaklari shular jumlasidandir.

Komil Kiylo'niy arab adabiyotidagi mashhur bolalar yozuvchilaridan biridir. Uning ertaklari oson va tushunarli uslubda yozilgan bo'lib, yoshlarga til o'rgatish va ularni ma'naviy jihatdan tarbiyalashga qaratilgan. Yozuvchi Komil Kiylo'niyning ertaklarida bosh qahramonlar bu hayvonlardir. Ushbu maqolada uning "الأرنب الذكي" (Aqlli quyon)" nomli ertagi misol sifatida tahlil qilindi.

"Bu ertakda, bir bo'rining o'z bog'i bo'ladi va unda karamning turli, eng shirin navlaridan yetishtirib g'amxo'rlik qiladi. Ammo bir kuni quyon uning bog'iga kirib, karamidan to'ygunigacha yeydi. Bo'ri buni quyonning tuproqda qolgan izlaridan bilib qoladi. Shu bilan bo'ri o'z dushmani bo'lmish quyonga xiyla ishlatishni o'ylashligi bilan boshlanadi".

Ertakda arab tilidagi ma'no kuchaytiruvchi so'zlar bilan bir qatorda yana so'zlar va fe'llarning sinonimlarini ham uchratish mumkin. O'zbek tilida bo'lgani kabi arab tilida ham bir xil fe'l va so'zni ishlatishlik, gapni chiroyli yo'sinda kitobxonga yetkazib berolmaydi. Shuning uchun, arablar ham bir so'zni qayta-qayta ishlatishni xush ko'rmaydi, balki uni sinonimlarini keltirib gapni kitobxonga go'zal tarzda yetkazib beradi. Bu esa tarjimonga arab tilida so'z lug'atini boyishiga yordam beradi.

Shu bilan birga arab tilida ko'pgina so'zlar o'zbek tiliga kirib kelgani bois, tarjimon arab tilidan o'zbek tiliga tarjima qilayotganda boshqa tillarga qaraganda kamroq qiyinchilikka duch keladi.

Masalan: g'azab - غَضَبٌ, sukut - سُكُوتٌ, xalos qilish - خَلَصَ, o'ch olish, intiqom - اِنْتِقَامٌ kabi so'zlar va boshqalar.

Shulardan keltirib o'tishimiz joizki: دَهْشَةٌ أَشَدُّ دَهْشَنَ gapini so'zma so'z tarjima qiladigan bo'lsak, dahshatning eng kuchlisida dahshatga tushdi gapi, bizning o'zbek tilida qattiq dahshatga tushdi deya tarjima qilinadi.

Bunda fe'lni kuchaytirish ko'rinishiga misol:

الْفَرَحُ أَشَدُّ فَرَحَانُ.

Ertakdagi bir-biriga ma'nosi yaqin va sinonim so'zlarni ko'rib chiqsak, ulardan:

إِهْتِدَاءٌ-تَوَصَّلُ عَنْ -qidirish, topish

نَضِجَ-اسْتَوَى -pishmoq, yetilmoq

صَمَتٌ-سُكُوتٌ -jim turmoq, sukut saqlamoq

وَتَّقُ-رَبَطَ -mustahkamlamoq

دُعْرَةٌ-خَوْفٌ -qo'rquv,qo'rqinch

زَلَّةٌ-خَطِيئَةٌ -xato,ayb, gunoh

تَخْوِيفٌ-تَهْدِيدٌ -qo'rqitish, tahdid solish

أَيَّقَنَ بَ -صَدَّقَ -ishontirmoq

أَخْفَى-كَنَمَ -yashirmoq

Ertakda keng qo'llanilgan sodda va boy so'z birikmalari, dialoglar va hikoyalar bolalar uchun tushunarli tarzda yozilgan. Bu nafaqat so'z boyligini oshiradi, balki so'zlarning ma'no doirasini ham kengaytiradi.

Matnda fe'llar va ismlar turli grammatik shakllarda ishlatilgan bo'lib, ular yordamida arab tilining asosiy qoidalarini o'rganish mumkin. Masalan, ergash gaplarning tuzilishi va fe'llarning turli zamon shakllari bolalar uchun sodda va qiziqarli shaklda ko'rsatilgan.

Komil Kiyloniy o'z ertaklarida sof adabiy arab tilidan foydalanadi. Bu til o'rganuvchilar uchun shevalardan holi, to'g'ri arab tilini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Komil Kiyloniyning bolalar uchun yozilgan ertaklari arab tilini yangi o'rganuvchilar uchun boy til materialini hisoblanadi. Ularning soddaligi va adabiy til me'yorlariga mosligi o'quvchilarning grammatik bilimlarini mustahkamlash va so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday ertaklar arab madaniyatini ham yaqindan o'rganish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. كامل كيلاني. الأرنب الذكي. – القاهرة - ٢٠١٧.
2. Носиров О., Юсупов М. Ан-На'йм арабча-ўзбекча луғати. – Наманган, 2014.
3. <https://www.noor-book.com>